

XORIJIY TILLARNI O`QITISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Normo'minov Bahodir Umarovich

SamDChTI “Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari” kafedrasi assistent o‘qituvchisi
[\(\[normuminovbahodir1@gmail.com\]\(mailto:normuminovbahodir1@gmail.com\)\)](mailto:normuminovbahodir1@gmail.com)

Sadilloyeva Toliba Bahrilloyevna

SamDChTI Kechki fakulteti 2-bosqich Xorijiy til adabiyoti yo`nalishi 21.21 guruhi talabasi

A R T I C L E I N F O.

Kalit so’zlar: qiziqarli, qo’shiq, harakatlar, tushuntirish, tez va oson, aqliy, jismoniy, ovozlar.

Annotatsiya

Mazkur maqola pedagog xodimlar va yoshlarda xorijiy tillarda erkin muloqotga kirisha olish ma’naviy-axloqiy, kasbiy-pedagogik faoliyatini takomillashtirishda xorij tajribalaridan foydalanishning muhim ahamiyatlari ko’rsatilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2023 LWAB.

Ma’lumki, jamiyat va tabiat o’rtasidagi munosabatlarni tadqiq etishga mo’ljallangan fanlardan bittasi psixologiya hisoblanadi. Insonda jismoniy tanadan tashqari undan farqlanuvchi yana nimadir borligi haqidagi tasavvurlar qadimdan mavjud bo’lgan. Ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar samarasи yoshlarimizga xorijiy tillarni o’rgatish imkoniyatlarini yanada kengaytirdi. Bugungi kunda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi mamlakat iqtisodiyoti va hayotining barcha jabhalari uchun yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta’minlash, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ma’naviy-axloqiy tarbiyalash, shuningdek, o’zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan yaxlit o’quv-ilmiy-ishlab chiqarish kompleksi sifatida ta’lim tizimini bosqichma-bosqich takomillashtirish vazifasini muvaffaqiyatli hal etishga xizmat qilmoqda. Shunga ko’ra, oliy ta’limda ingliz tili o’qituvchilarining kasbiy-pedagogik faoliyatini takomillashtirishda xorij tajribalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ularni amalga oshirishda xalq ta’limi muassasalari pedagog kadrlarining ilg‘or xorijiy tajribalarini o’rganish hamda chet tillarni o’qitishda zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha malaka va ko’nikmalarini takomillashtirib borish alohida ahamiyatga ega. Hozirda xalq ta’limi tizimidagi pedagog xodimlarning muntazam ravishda o’z bilim, ko’nikma va malakalarini yangilab borishlariga imkoniyatlar yaratilmoqda. Ma’lumki, respublikada tillarni o’qitishda norasmiy ko’plab

markazlar ochildi va ular keng faoliyat olib bormoqda. Bir qator horijiy davlatlarning elchixonalari qoshida til o'qitish markazlari ham ochilgan bo'lib, tinglovchilar o'qish istagini bildirganlar safidan saralab olinadi va o'z mamlakati tili bo'yicha o'qitadi. Bunda pedagog xodimlar yoshlarda xorijiy tillarda erkin muloqotga kirisha olish uchun zarur bilim va ko'nikmalarni shakllantirish jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilishlari va o'z pedagogik faoliyatlarida hisobga olib borishlari zarur.

Shuningdek, tillar bo'yicha o'quv dasturlarida O'zbekistonda chet tillarni o'qitish sifati va darajasini muntazam ravishda oshirish hamda xorijiy til o'qituvchilarining malakasini oshirish o'quv reja va dasturlarida ushbu jarayonni zamonaviy talablar darajasida takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Ayniqsa, xorijiy ta'limda xorijiy tillarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini va ularga nisbatan psixologik yondashuvlarni hamda zamonaviy talablarni hisobga olgan holda mutaxassislarining hamkorligida zarur o'quv adabiyotlari, o'quv-uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqilmoqda. Shu bilan birga, xorijiy til o'qituvchilar aynan xorijiy til o'quvchilarining psixologik xususiyatlariga e'tibor berib borishlari ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning zarur sharti hisoblanadi. Xorijiy ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yuzasidan bugungi kunda o'qituvchilardan bir qancha muhim vazifalarni bajarish talab etiladi. Til o'rganishning va uni o'rgatishning psixologik o'ziga xosligi chet tilidagi matnni idrok etish, chet tilidagi so'zlarni xotirada saqlash bilan xorijiy chet tilini o'quvchilar o'zlashtirishi jarayonida ularning o'zga tildagi tafakkuri kengayib borishini ta'minlashning psixologik jihatlarini bilishni talab qiladi. O'qituvchi xorijiy tilni o'rgatishda o'quvchilarining rivojlanishiga xos bo'lган psixologik xususiyatlarni o'rganishi, o'quvchilar aqliy taraqqiyotining psixologik qonuniyatlaridan xabardor bo'lishi, o'quvchining psixologik taraqqiyotiga faol ta'sir qiluvchi omillarni o'rganishi ular bilan bo'ladigan munosabatlarni ham shakllantirib borishiga e'tibor qaratadi.⁵

Xorijiy til o'quvchining chet tilida mustaqil, erkin fikrlash doirasini kengaytirish ular bilan suhbatlarni to'g'ri tashkil eta olishga ham bog'liq. Psixolog olim A.Shamshetovaning ilmiy fikrlariga ko'ra xorijiy til o'qituvchilar ingliz tilini o'rgatishda o'quvchining psixologik individual xususiyatlarini hisobga olib va ularga mos keladigan ikki yoki besh daqiqali ingliz tilida kayfiyatni ko'taruvchi psixogimnastika mashqlarini to'g'ri tashkil etib borishlari dars samaradorligini oshiribgina qolmay, o'quvchilarda pozitiv emotsiyonal munosabatlarni ham shakllantirib borishiga e'tibor qaratadi.⁵

Bugungi kunda o'quvchi maktabda chet tili darslarini o'zlashtira olmayotgan holatlarni ushbu masala bilan bog'liq bir qator muammolar keltirib chiqarishi mumkin. Jumladan:

- Bola ilk bor maktabga borib, sistematik ravishda aqliy mehnat bilan shug'ullanishni boshlaganida kattalarning, ota-onalari va ko'proq o'qituvchilarining yordamiga muhtoj bo'ladi.

- Xorijiy til o'qituvchilar chet tilini o'rgatish darslarida xorijiy tillarni o'qitishga bo'lган zamonaviy psixologik yondashuvlarni to'g'ri tashkil etishlari lozim.

- Ular chet tilini o'rgatish bo'yicha pedagogik mahorati va kasbiy kompetentlik darajasini oshirish yuzasidan o'z pedagogik faoliyatlariga innovatsiyalarni tatbiq etishning samarali shakllarini, didaktik vositalar va elektron o'quv materiallarini yaratish texnologiyalarini bilishlari hamda ulardan ta'lim jarayonida foydalanishlari o'quvchilarning xorijiy tillarni o'rganishi sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

- Xorijiy til o'qituvchilar ingliz tilini o'rgatishda psixologik mashqlarni to'g'ri qo'llay olishlari lozim.

- Xorijiy til o'quvchilarning tilni o'zlashtirishdagi hadiksirashi, chalg'ishi va charchashini hamda salbiy o'zgarishlarning oldini olishga qaratilgan psixogimnastika mashg'ulotlarini ham o'z vaqtida qo'llay olishi o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq.

-Dars jarayonida bolaning bilish psixik jarayonlari - diqqati, fikrlashi, idroki, tasavvuri, xotirasi va ta'lim olishga qiziqishlari o'yinlar yordamida rivojlantiriladi.

-Guruhli o'yinlardan foydalanish muloqot ko'nikmalar, bir-birini o'zaro tushunish, sherikchilik, o'zaro mas'uliyatni sezish kabi xislatlarni rivojlantirishga ham yordam beradi.

Xorijiy tillardan ingliz tilini o'rgatishda o'qituvchi emotSIONAL-hissiy birlikni shakllantirish bilan qisqa psixogimnastika mashqlarini tashkil etishini ko'rib chiqamiz. Ingliz daqiqa, ya'ni English minut mashqini bajarishda uni faqat takrorlash bilan mashq qilish kerak emas.

-O'qituvchi "Men baxtliman", iborasini o'rgatayotganida o'quvchilar o'zlarining baxtliliklarini his qilishlariga erishishga e'tibor berishi kerak.

- I am happy - Men baxtliman deganda o'quvchi ikki qo'lini ozgina ko'tarib, baxtli bo'lgan kayfiyatini namoyon qilishi kerak.

-I am cheeful -Men tetikman deganda o'quvchilar qo'lining ikki bosh barmog'ini ko'rsatishi kerak.

- I am merry - Men quvnoqman qiziq va til o'rganishlari uchun samarali rol ijro etish (role play) o'qituvchi biror ma'lumotni, masalan, hayvon yoki qushlarning nomlarini o'rgatayotgan paytda rol orqali ijro etishi yoki bolalarga ijro ettirishi lozim.

Misol uchun: Bir o'quvchi itning vovillashi, mushukning miyovlashini ko'rsatib bersa, boshqa bir o'quvchi bu tovushlar qaysi hayvon ekanligini ko'rsatish mumkin. Mavzuga oid muhit; O'qituvchi mavzusiga qarab o'sha muhitni yaratib bera olsa, bolalar tilni yaxshi o'rganishadi.

Masalan: birthday, in the kitchen va boshqalar. Traveling (sayohat) mavzusida o'qituvchi sayohat uyshtirishi, sayohatga qanday vositalar orqali (foot, bicycle, automobile, train, boat, airplane) borish mumkinligi, qayerlarga sayohat qilish(Tashkent, Samarkand, Bukhara,) muhimligi haqida ma'lumot beradi.

Bu hol o'quvchilarning so'z boyligini, til imkoniyatlarini kuchaytiradi, dunyoqarashini o'stiradi deganda o'quvchilar boshlarini ikki tomoniga qimirlatishlari ularda ijobiy emotSIONALLIKNI shakllantirib boradi.

Xulosa qilib aytganda: Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, xorijiy til, ingliz tili darslarida ijodiy ko'tarinkilik muhitini vujudga keltirish o'quvchining qiziqishini, bilish jarayonini, nutqi, shaxslararo munosabatlari, ijtimoiy moslashuv malakalarini rivojlantirib boradi. Ushbu jihatlar o'qituvchi tomonidan tashxis etiladi va sifat o'zgarishlar dinamikasi tahlil etib boriladi.

Foydalilaniladigan adabiyotlar ro'yxati.

1. G'oziyev E.G'. Umumiyl psixologiya. Toshkent. 2010.
2. G'oziyev E.G' Ontogenez psixologiya. Toshkent."Noshir" nashriyoti 2010.
3. David G. Mayers. Psychology, USA 2010
4. Nemov R.S. Psixologiya.Kniga 1.2. Psixologiya obrazovaniya. "Vlados".M.:2007
5. A.Shamshetova, R.H.Meliboyeva, X.Usanova, I.Haydarov. Umumiyl psixologiya. T. 2018
6. Narzullayevna, S. N., & Odina, B. Linguistic skills such as familiarity with grammatical structures, vocabulary, and phonetics. *Sciencepublish. org*, 41.
7. Fayzullayeva, M. B. (2021). USING TECHNOLOGIES IN THE ENGLISH LANGUAGE LEARNING AND TEACHING. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(5), 1-5.
8. qizi Abduraximova, F. K. (2023). INGLIZ TILINI O 'QITISHDA MAQOLLARNING ROLI. *SCHOLAR*, 1(12), 123-127.